
Qabul qilindi: 8-sentabr 2026-yil • Ma’qullandi: 14-sentabr 2026-yil • Nashr qilindi: 15-sentabr 2026-yil

O‘ZBEKISTON FUQAROLARINING QONUNCHILIK TASHABBUSI - DAVLAT SIYOSATINING DEMOKRATIK MEXANIZMI SIFATIDA

Nilufar Abdurazakovna Niyatova
Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti magistratura talabasi
Email: niyatovanilufarabdurazakovna@gmail.com
Ilmiy identifikatsiya raqami: MJZ-0726-0135
Tashkent, O‘zbekiston



Annotatsiya. Ushbu tatqiqotda O‘zbekiston Respublikasida fuqarolarning qonunchilik tashabbusi huquqi davlat siyosatini shakllantirishning muhim demokratik mexanizmi sifatida chuqur tahlil qilinadi. Tadqiqot O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, “Normativ-huquqiy hujjatlar to‘g‘risida”gi Qonuni, Oliy Majlis Qonunchilik palatasi Reglamenti, Prezident farmonlari, “Mening fikrim” va regulation.gov.uz platformalaridagi statistik ma’lumotlar, shuningdek, Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (OECD) hisobotlariga asoslanadi. Maqolada mavjud huquqiy kafolatlar, amaliy mexanizmlar, ularning real ishlashi, shaffoflik darajasi va xalqaro standartlarga muvofiqligi o‘rganilib, ishtirok sifatini oshirishga qaratilgan aniq takliflar ilgari suriladi.

Kalit so‘zlar: qonunchilik tashabbusi, fuqarolik jamiyati, jamoatchilik muhokamasi, ochiq hukumat, demokratik mexanizm, davlat siyosati, “Mening fikrim” platformasi, regulation.gov.uz.

Kirish. Zamonaviy demokratik davlatlarda qonun ijodkorligi jarayoni faqat davlat organlari faoliyati bilan cheklanib qolmaydi. Fuqarolar va fuqarolik jamiyati institutlarining bu jarayonda faol ishtiroki davlat siyosatining ochiqligi, shaffofligi va jamoatchilik manfaatlariga mosligini ta’minlovchi muhim omil hisoblanadi. O‘zbekistonda so‘nggi yillarda ushbu yo‘nalishda sezilarli islohotlar amalga oshirildi. 2021 yildan boshlab normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini portal orqali jamoatchilik muhokamasidan o‘tkazish

tartibi joriy etildi. O‘zbekiston Respublikasining 2023 yildagi yangi tahrirdagi Konstitutsiyaning 98-moddasi esa 100 ming nafar fuqaroga qonun ijodkorlik tashabbusi huquqini berdi. Bu huquq, mohiyatan fuqarolarning davlat siyosatini bevosita shakllantirishdagi ishtirokini kafolatlovchi demokratik mexanizm sifatida baholanadi. Biroq, huquqiy kafolatlarning mavjudligi ularning amaliyotda to‘liq va samarali ishlashini avtomatik ta’minlamaydi. Tadqiqot jarayonida aniqlanishicha, qonunchilik tashabbusi mexanizmlari hali ham bir qator tizimli cheklovlarga ega. Ushbu tezis aynan shu bo‘shliqlarni tahlil qilishga, mavjud mexanizmlarning real ishlash darajasini baholashga va ularni takomillashtirish yo‘llarini ko‘rsatishga bag‘ishlanadi.

O’zbekistonda 2015-yil 1-yanvardan *Regulation.gov.uz* - normativ-huquqiy hujjatlar loyihalari muhokamasi portali ishga tushdi. Ushbu portal barcha normativ-huquqiy hujjatlar loyihalari uchun majburiy jamoatchilik muhokamasi platformasiga aylandi. Portal orqali har bir foydalanuvchi - fuqaro, tashkilot, nodavlat notijorat tashkilotlar yoki mutaxassis hujjat loyihasiga izoh yuborishi, o‘z taklifini kiritishi va boshqa ishtirokchilarning fikrlarini o‘qishi mumkin. Regulation.gov.uz platformasida loyiha darajasida shaffoflik ta’minlangan bo‘lib, har bir loyiha bo‘yicha tushgan izohlarni ochiq ko‘rish mumkin[1]. Biroq platforma statistikasida yiliga qancha loyiha muhokamaga qo‘yilayotgani hamda foydalanuvchilar soni haqida ma’lumotlar umumiy berilgan bo‘lib, tushgan takliflarning qancha foizi inobatga olinayotgani yoki rad etilayotgani haqida ko‘rsatkichlar nashr etilmaydi.

O‘zbekiston Respublikasining “Normativ-huquqiy hujjatlar to‘g‘risida”gi Qonunida ishlab chiquvchi organlar normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini “normativ-huquqiy hujjatlar loyihalari muhokamasi portali”da joylashtirish majburiyati belgilangan bo‘lib, muhokama muddati kamida 15 kunni tashkil etadi[2]. Bu muddat, bir qarashda, ishtirok uchun yetarli ko‘rinsa-da, xalqaro standartlar bilan solishtirilganda ancha qisqa bo‘lmoqda. Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (OECD) ning 2024 yilgi “O‘zbekiston davlat boshqaruvini baholash hisoboti”da ushbu muddatning xalqaro standartlardan past ekanligi tanqid qilingan[3]. Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti a’zo davlatlarida minimal muddat odatda 4 haftani, Shvetsariya va Yevropa Ittifoqida esa 12 haftani tashkil qiladi. Qisqa muddat nodavlat notijorat tashkilotlar, mustaqil ekspertlar va oddiy fuqarolarga

loyihani chuqur tahlil qilib, asosli va sifatli fikr bildirishga imkon bermaydi. Natijada ishtirok ko‘pincha shakliy xarakter kasb etadi.

Shuningdek, ushbu Qonunning 24-moddasida yana bir muhim norma mavjud bo‘lib, uhga ko‘ra, kelib tushgan fikr-mulohazalar va takliflar rad etilgan taqdirda ishlab chiquvchi organ ularni rad etish sababini asoslashi shart. Biroq amaliyotda bu asoslash jamoatchilikka ommaviy tarzda e’lon qilinmaydi.

2023 yilda yangi tahrirda qabul qilingan Konstitutsiyaning 98-moddasi 100 ming nafar fuqaroga qonun ijodkorlik tashabbusi huquqini beradi[4]. Bu huquqni amalga oshirishda qo‘yilgan talablar Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Reglamentining 152^2-moddasida belgilangan bo‘lib, qonunchilik taklifi Qonunchilik palatasiga O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari tomonidan kiritilayotganda qonunchilik taklifining matni bilan saylov huquqiga ega bo‘lgan, yuz ming nafardan kam bo‘lmagan O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarining familiyasi, ismi, otasining ismi, tug‘ilgan sanasi, yashash joyi manzili, pasportining yoki identifikatsiyalovchi ID-kartasining seriyasi va raqami, shuningdek O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari tomonidan kiritilgan imzoning sanasi ko‘rsatilgan imzo varaqalari ilova qilinishi kerak[5]. Biroq bu talablarni amalga oshirishni texnik ta’minlash uchun alohida elektron imzo yig‘ish platformasi joriy qilinmagan va imzolarni mustaqil tasdiqlash organi belgilanmagan. Bu konstitutsiyaviy kafolat va uning amaliy mexanizmi o‘rtasidagi bo‘shliqni ko‘rsatadi

Jamoatchilik fikrining qonun ijodkorligiga ta’sirchanlik darajasini ko‘rsatuvchi eng ishonchli ko‘rsatkich – bu jamoatchilik takliflarining qonun matniga real ta’siri hisoblanadi. 2018 yilda tashkil etilgan “Mening fikrim” veb-portali fuqarolarga elektron jamoaviy murojaat qilish imkoniyatini yaratdi. 2018-2025 yillar davomida portalga 6900 dan ziyod murojaat kelib tushgan, shundan 495 tasi (7,2 foiz) rasmiy ovoz to‘plash bosqichiga o‘tkazilgan[6]. Statistik tahlillarga ko’ra, 2026 yil iyun oyi holatida umumiy murojaatlar soni 8311 tani tashkil etib, ulardan 154 tasi ekspertiza jarayonida, 22 tasi qo‘llab-quvvatlash bosqichida turibdi[7]. Tatqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, 2018 yildan 2025 yil fevraligacha yiliga o‘rtacha 986 ta, oyiga taxminan 82 ta murojaat kelib tushgan bo‘lsa, 2025 yil fevraldan 2026 yil 9 iyungacha bo‘lgan 16 oylik davrda esa oyiga o‘rtacha 88 ta murojaat

qayd etilgan. Bu raqamlar platformaga qilinayotgan murojaatlar sonining sezilarli darajada ko‘paymaganidan dalolat beradi. Muhim muammo shundaki, filtrdan o‘tish mezonlari va rad etilgan murojaatlar sabablari ommaviy nashr etilmaydi. Bu shaffoflikni cheklaydi va fuqarolarda “mening ovozim hisobga olinmaydi” degan kayfiyat shakllanishiga olib kelishi mumkin. Har 14 murojaatdan faqat bittasi rasmiy jarayonga kirishi, qolganlari haqida esa hech qanday ma’lumot e’lon qilinmasligi ishtirok motivatsiyasini pasaytiradi.

Shunday bo‘lsa-da, ijobiy misol sifatida “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan taraqqiyot strategiyasi” loyihasi muhokamasini keltirish mumkin. U strategy.uz, regulation.gov.uz va jamoatchilik.uz platformalarida o‘tkazilib, 17 535 ta taklifni jalb etgan va 100 ta konseptual o‘zgarishga olib kelgan[8]. Bu raqam platformalarning real imkoniyatini yaqqol ko‘rsatadi. Biroq bunday yuqori faollik keng siyosiy e’tibor, maxsus platforma va davlat rahbariyatining aniq ko‘rsatmasi bilan ta’minlangan. Kundalik normativ-huquqiy hujjatlar muhokamalarida esa bunday darajadagi jamoat faolligi va ta’sir kuzatilmaydi.

Xulosa va takliflar. O‘zbekistonda fuqarolarning qonunchilik tashabbusi huquqi davlat siyosatining demokratik mexanizmi sifatida shakllanmoqda. Konstitutsiyaviy kafolatlar, raqamli platformalar va bir qator huquqiy normalar mavjudligi ijobiy holat hisoblanadi. Shu bilan birga, qisqa muhokama muddati, rad etilgan takliflar sabablarining ommaviy e’lon qilinmasligi, “Mening fikrim” platformasidagi filtr mezonlarining noaniqligi va jamlanma statistikaning yo‘qligi ishtirok sifatini sezilarli darajada cheklaydi.

Mazkur muammolarni bartaraf etish uchun quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish taklifi ilgari suriladi:

- Jamoatchilik muhokamasi muddatini xalqaro standartlarga yaqinlashtirish (kamida 30 kun);

- Rad etilgan takliflar sabablarini majburiy tartibda ommaviy e’lon qilish mexanizmini joriy etish;

- 100 ming imzo yig‘ish uchun maxsus elektron platforma yaratish va mustaqil tasdiqlash organini belgilash;

- “Mening fikrim” va regulation.gov.uz platformalarida yillik jamlanma statistika (murojaatlar soni, filtrdan o‘tganlar, inobatga olingan va rad etilgan takliflar soni va

sabablari) ni muntazam nashr etish.

Ushbu chora-tadbirlar amalga oshirilsa, fuqarolarning qonunchilik tashabbusi haqiqiy demokratik mexanizmga aylanadi va davlat siyosatini shakllantirishda fuqarolik ishtirokining samaradorligi sezilarli oshadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Regulation.gov.uz statistikasi.

2. O‘zbekiston Respublikasining “Normativ-huquqiy hujjatlar to‘g‘risida”gi O‘RQ-682-son Qonuni. 20 aprel 2021 yil, 24-modda.

3. OECD. Public Governance Reviews: Uzbekistan: Towards a More Modern, Effective and Strategic Public Administration. OECD Publishing, Paris, November 2024, P. 178.

4. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. - Toshkent, 2023. 98-modda.

5. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Reglamenti (4166-IV-son Qaror, 20 mart 2024 tahriri). 152²-modda.

6. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik Palatasi va O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashining “Mening Fikrim veb-portali orqali kelib tushgan elektron jamoaviy murojaatlarni ko‘rib chiqishni yanada samarali tashkil etishga doir choralar to‘g‘risida” gi 463-V/KQ-65-V-sonli Qo‘shma qaror. 2025 yil 12 fevral.

7. “Taraqqiyot strategiyasi” markazi axborot xizmati materiallari.

8. https://petition.gov.uz/.